



№ 1-2 (81-82),
2020-yil yanvar-fevral

IJODIY PARVOZ

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, axborot gazetasi

**9-fevral – Buyuk shoir va mutafakkir
Mir Alisher Navoiy
tavallud topgan kun**



Anbari tar istamon yuz uzra xoling borida,
Kam ko`runur yangi oy mushkin hiloling borida.

Siymi ashkim itlaringning yo`lida sarf aylaram,
Chun demishturlarki: qozg`on do`st moling borida.

Chashmayi hayvondin, ey jonim, suv ichmaydur ko`ngul,
Xizrvash xatting aro shirin ziloling borida.

Chun vafo qilmas kishiga oqibat davroni husn,
Bas g`animat bil vafo qilmoq jamoling borida.

Degasen, miskin Navoiy nolasin bulbul kibi,
Ey sabo, ul gul harimig`a majoling borida.

**14-fevral – Buyuk shoh va shoir
Zahiriddin Muhammad Bobur
tavallud topgan kun**



Yoz fasli, yor vasli, do'stlarning suhbatlari,
She'r bahsi, ishq dardi, bodaning kayfiyati.

Yoz faslida chog'ir ichmakning o'zga holi bor,
Kimga bu nash'a muyassar bo'lsa, bordur davlati.

Ishq dardini chekib, har kimki topsa vasli yor
Ul zamon o'lg'ay unut yuz yilg'i hijron shiddati.

Do'stlarning suhbatida ne xush ulg'ay bahsi she'r,
To bilingay har kishining tab'i birla holati.

Gar bu uch ishni muvofiq topsang ul uch vaqt ila,
Mundin ortuq bo'lmag'ay, Bobur, jahonning ishrati.

НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА ҲАЛОЛЛИК

Муҳтарам Президентимиз Шавкат Мирзиёев шу йил 24 январь куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا Мурожаатномасида Республикамиз келажаги билан боғлиқ жуда кўп масалаларга тўхталиб ўтди. Маърузани эшитган ҳар бир фуқаромизнинг келажакка бўлган ишончи янада ортди. Айниқса, ўз фарзанди келажакга учун қайғурадиган ҳар бир инсон кўнглида катта умид, ишонч пайдо бўлди, десак янглишмаймиз. Президент кўтарган масалаларнинг ҳар бири миллат, айни замонда, давлат мустақиллиги, юрт келажакга нуктаи назаридан жуда муҳим эди.

Президентимиз кўтарган яна бир муҳим жиҳат бу жамиятимиз риво-

жигга катта тўсиқлик қилаётган коррупцион ҳолатлардан батамом қутулиш масаласи бўлди. Бунда Муҳтарам Президентимиз “ҳалоллик вакцинаси” ҳақида гапириб, бундай вакцинани қаердан олиш мумкин, деган масалани ўртага қўйдилар. Ўзингиз ўйлаб кўринг, бугун нима учун айни шу масала ўртага ташланыпти? Менимча, ҳалоллик бор жойда фирромлик, муттаҳамлик, кўзбўямачилик, алдоқчилик, товламачилик каби салбий иллатлар бўлмайди. Умуман, ҳалоллик деганда нимани тушунамиз? “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”да бу сўзга шундай таъриф берилди: “Виждон билан, инсоф юзасидан иш тутиш; тўғрилиқ, софлик”. Қисқа ва ўта тушунарли ушбу

таърифнинг мазмун ва моҳияти барчага ойдек равшан. Шундай бўлса-да, бу масалага янада кенгроқ киришни маъқул топдик.

Мурожаатномада шундай сўзлар бор: “Коррупцияга қарши курашишда аҳолининг барча қатламлари, энг яхши мутахассислар жалб қилинмас экан, жамиятимизнинг барча аъзолари, таъбир жоиз бўлса, ҳалоллик вакцинаси билан эмланмас экан, ўз олдимизга қўйган юксак марраларга эриша олмаймиз. Мана шуни ҳамма билиши керак. Энг катта масала – ҳалоллик вакцинасини қаердан оламиз?”. Эътибор беринг: “ҳалоллик вакцинаси” деган ибора, менимча, ўзбек тили лексикасида илк бор қўлланмоқда. Жуда

оқилона топилган ибора. Дарҳақиқат, ҳар қандай жамиятнинг ривожига кичик бўладиган энг салбий ҳолат бу – коррупциядир. Бундан қутулмасак, бунга қарши каттик курашмасак, кўзлаган исхотларимизни амалга ошира олмаймиз, юртимиз қутулганидек тараққий эта олмайди. Президентимиз айтганларидек, коррупция ёнимизда биз билан бирга юрибди, ҳар куни у билан тўқнашамиз. Маҳалла фаоллари, оқсоқоллар, қўйинги, ҳар биримиз бундай ўта салбий ҳолат билан аёвсиз курашимиз, ундан озод бўлишимиз лозим. Ундан қутулмас эканмиз, кўзлаган марраларимизга етишимиз жуда қийин бўлади, ундан қанчалик тез қутулсак, маррага шун-

ча тез эришамиз, юртимиз обод, турмушимиз фаровон бўлади. Албатта, ушбу савол юрт қайғуси билан яшовчи ҳар бир инсонни кўп ўйлантириши, мулоҳаза юритиши табиийдир.

Президентимиз томонидан кўйилган бу саволга жавоб кидириб, кўп ўйландим: ҳалоллик вакцинасини қаердан олишимиз мумкин? Бундай вакцина на ўзимизда, на жаҳон бозорида тайёр ҳолда сотилмаса? Умуман, “вакцина” ўзи нима? Яна “Изоҳли луғат”га мурожаат қилдим: “Вакцина – Юқумли касалликларнинг олдини олиш ва даволаш учун ишлатиладиган эмдори; эмлашда ишлатиладиган дори”. Демак, вакцина ҳар қандай юқумли касалликнинг олдини олишга хизмат қилади. Биз кидирган “ҳалоллик вакцинаси” ҳам ҳалолликка тўсиқ бўладиган, жамиятда унинг яшашига қаршилик қиладиган салбий иллатларга, хусусан, коррупцияга қарши эмланади ва инсоннинг бундай иллатга қарши иммунитетини оширади.

Ўзимча жавоб топишга ҳаракат қилдим: ҳалоллик вакцинаси ҳар бир оилада, таълим муассасасида, маҳаллада, аждодларимизнинг ўғитларида,

адабий меросимизда, бугунги шеъримиз ва адабиётимизда мавжуд эмасми? Мавжуд. Хусусан, буюк мутафаккиримиз Алишер Навоий ижодини ўрганиб кўрайлик. Буюк Навоийнинг бутун ижоди маҳсули инсониятни ҳалолликка, адолатга, саховатпешаликка, инсонпарварликка ундаш ғояси билан суғорилган. У айтади:

*Одами эрсанг демагил одами,
Оники, йўқ халқ гамидин гами.*

Бу улуг сатрларни ҳар биримиз мактаб давридан ёд биламиз. Кимдир унинг моҳиятини ичдан англайди, кимдир шунчаки такрорлайди. Ҳамма гап уни юракдан англашда.

Навоийшунос олим, академик устозимиз Азизхон Қаюмов қаламига мансуб “Ёшлар тарбиясида моддий ва маънавий ҳаёт уйғунлиги” номли монографияда Навоийнинг ҳалоллик бобидаги фикрлари кенг баён қилинган. Унда ёзилишича, таъмағирликка қарши кураш Алишер Навоий тафаккур дунёсидаги асосий принциплардан биридир. Чунончи, “Ҳайрат ул-аброр”нинг еттинчи мақолати гарчи қаноат таърифига бағишланган бўл-

са-да, Алишер Навоий унинг кириш қисмида таъмағирликнинг хорликка олиб келишини, таъмағир гадо каби эканини, таъма қилган амалдор ювиндихўр, қаноатли дарвеш эса подшоҳ каби эканини таъкидлайди:

*Қулбада дарвешки, қоний дурур¹,
Фойиқ эрур шаҳзаки, тамеъдурур.
Чунки тамеъ бўлди гадолар иши,
Билки, гадодур тамеъ этган киши.*

Навоийнинг ғоясида юксакликка элтувчи нарса фақат қаноатдир. Киши қанчалик зебу таъмадан йироқ бўлса, шунча хотиржам бўлади, осойишта яшайди. Кишига олтин, жавҳарлар тўла таом келтирсалар, оч одам уни ея биладими? Уни чайнашдан тиш синади, ютмоғидин бўғиз яраланади, меъда уни хазм эта олмайди. Бундай таомни еган ҳалок бўлади. Навоий таъмағирлик ва очқўзликни кескин қоралайди, инсонларни ҳалолликка, қаноатга чакиради. Навоийнинг фикрича, ҳалоллик ва қаноат инсоннинг шахсий фазилатларини баланд тутишга ёрдамлашади, уларни улугвор этади.

¹ Қоний – қаноат этувчи, бориға рози бўлувчи, ортиқча нарса истамовчи

Буюк Навоийнинг ҳалоллик бора-сидаги фикрларини узоқ келтиришимиз мумкин. Мақсадимиз – ёшларни ҳалоллик фазилатларига эга шахс сифатида камол топтириш воситаларини топиш, бу ишда Навоий бобомиз асарлари кўл келишини яна бир бор асослаш. Демак, бугун Муҳтарам Президентимиз томонидан 5 асосий ташаббуснинг бири бўлган ёшларни китобхонликка кўпроқ жалб этиш, хусусан, Навоий асарларини бола-ларбоп шаклда чоп этиш, мактабгача таълим муассасаларида, умумий ўрта таълим тизимида бу асарларни кўпроқ ўқитишни ташкил этиш муҳимдир. Ўз халқи, фарзанди келажакдаги учун қайғурган жамиятимизнинг ҳар бир аъзоси бу ишга диққат-эътиборини қаратиши келажакда “ҳалоллик имунитети” юксак авлодлар сафининг кенг ёйилишига, тарбия топишига ўзининг муносиб ҳиссасини қўшади. Зотан, ҳар биримиз бунинг учун масъулмиз.

Иброҳим ЙЎЛДОШЕВ,
филология фанлари доктори,
профессор

Центральное место в творчестве Бабур занимает бесценный литературный памятник прозы на узбекском языке исторический труд “Бабурнаме”, которую востоковед В.Бартольд назвал “лучшим произведением тюркской прозы”. Книга была завершена в Индии, она носит в основном автобиографический (мемуарный жанр) характер и отражает историю народов Центральной Азии конца XV – начала XVII вв.

По совокупности сведений и их достоверности “Бабур-наме” является самым важным и ценным историко-прозаическим трудом, не имеющим себе равных среди аналогичных сочинений, написанных в средние века в Средней Азии, Иране, Афганистане и Индии.

По богатству и разнообразию материала, по языку и стилю “Бабур-наме” стоит выше любой исторической хроники, составленной придворными летописцами того времени. Не удивительно поэтому, что в разные времена труд этот привлекал пристальное внимание ученых своего мира.

“Бабур-наме” посвящен описанию деятельности Бабура, его удачных и неудачных военных походов, изложению всех перипетий его богатой приключенческой жизни. История создания “Бабурнаме” неизвестна, по сведениям дочери Гульбадан-бегим, в ее книге “Хумаюн-наме”, описывается, что в Индии, в городе Сикри, в саду была площадка и наверху этой площадки Бабур имел обыкновение писать книги.

“Бабур-наме” состоит из трех частей. Первая ее часть посвящена описанию политических событий в Мавераннахре в конце XVв. Вторая часть охватывает события, происходившие на территории Афганистана, которая в эпоху Бабура была известна как “Кабульский удел”. В последней части, описываются политические события

в Северной Индии, географические данные страны, ее природные особенности, содержатся интересные сведения о народах, населявших эту страну.

Автор “Бабурнаме” с присущей ему откровенностью описывает борьбу за власть, приводит факты опустошения земледельческих оазисов, увеличения поземельного и др. налогов, сбор которых участвовал в годы смуты во владениях последних тимуридов в Хорасане и Мавераннахре.

Благодаря “Бабур-наме” мы узнаем об имевшем место в г.Самарканде страшном голоде в дни осады его Шейбаниханом в1501г. Правдивость сведений Бабура подтверждают историки того времени: Хандемир, Мухаммад Хайдар, Мухаммад Салих, Беннаи и др. Сам Бабур пишет: “... все, что здесь написано, истина, и цель этих слов в том, чтобы похвалить себя, -все, действительно, было так, как я написал. В этой летописи я вменил себе в обязанность, чтобы каждое написанное мной слово было правдой и всякое дело излагалось так, как оно происходило”.

“Бабурнаме” хотя и посвящена политической истории вышеназванных стран рубежа XV-XVIIвв., однако изобилует она также бесценными материалами из социально-экономической жизни народов, затрагивает вопросы морали, этики, нравственности и аспекты современной автору эпохи.

“Бабурнаме” содержит многочисленные сведения о литературной среде самого Бабура. На основе этих сведений можно воссоздать биографии многих малоизвестных поэтов того времени, живших в Централь-

ной Азии, и писавших стихи, как на персидском, так и тюркском языке. В книге много словесных портретов целого ряда современников поэта, государственных деятелей, художников, музыкантов, историков.

Чрезвычайно ценными являются сведения Бабура о полезных ископаемых городов Центральной Азии. В книге не только приводятся отдельные сведения о природных ископаемых, но одновременно отмечается их назначение в хозяйственной жизни страны.

С большой любовью пишет Бабур о Самарканде, не упускает автор из виду описание обсерватории Улугбека, которым восторгался, отмечая совершенство этого сооружения, его изумительность.

В книге Бабура получили подробные описания жизнь и трудовая деятельность различных афганских племен, обитавших на обширной территории между Вахшем и Пенджабом.

В “Бабурнаме” нашли отражение флора и фауна описываемых стран.

Бабур, подробно описывая Хиндустан, восхищается его природой, сравнивает его со своей родной: “Эта удивительная страна; в сравнении с нашими землями это иной мир. Горы, реки, леса, города, области, язык, растения и ветры - все там не так как у нас. Хотя и жаркие области, прилегающие к Кабулу, кое в чем сходны с Хиндустаном, но в других отношениях они не сходны: стоит лишь перейти реку Синд, как земли и вода, и деревья, и камни, и люди, и обычаи - все становится таким же, как в Хиндустане”.

МИРОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ “БАБУРНАМЕ”

Описывая политическую жизнь Индии, Бабур дает сведения об истории Индии XV - начала XVI вв.

В “Бабур-наме” много фактических данных по этнографии: интересны описания одежды индусов, их обычаев, образа жизни простого народа и знати.

Бабур в своей деятельности преследовал цель благоустройства подвластных ему крупных городов Индии. Планировка и архитектура общественных и частных построек, их внешние оформление и интерьер, имеют много общего со среднеазиатским стилем, орчанично сочетаясь с индийской и среднеазиатской. Бабур стремится укрепить торгово-экономические связи с соседними странами.

В настоящее время “Бабурнаме” все более привлекает внимание специалистов из разных стран мира. Ценность сведений, приведенных в “Бабурнаме”, искренность и самокритичность автора, достоверность фактов получили единодушное признание ученых всего мира. Данные “Бабур-наме” вошли в сводные тома по истории народов Центральной Азии.

Интерес к замечательным творениям Бабура, особенно к его книге “Бабурнаме”, возрастает год от года во всем мире.

В “Бабур-наме” автором проводится мысль о том, что в этом скоротечном и бременном мире долг каждого оставить после себя доброе имя. Вот что он пишет:

Если я умру с добрым именем - хорошо.

Мне нужно (доброе) имя - тело принадлежит смерти.

Великое творение Захириддина Мухаммада Бабура “Бабурнаме” обессмертило имя поэта в века.



Хамдам ИСМАИЛОВ,
Заведующий кафедры
«Языков и литературы»

Turkiy she'riyat sultoni



Alisher Navoiy barcha turkiy xalqlar adabiyoti, madaniyati taraqqiyotiga birdek daxldor shaxs va fidoyi ustozdir. Fidoyi inson yaratgan g'oyalar zamonga sig'maydi, u o'z qalbi bilan kurashadi, millatni, insoniyatni yangi yanada yaxshiroq zamonga undab yashaydi va baxtini shunda ko'radi. Buyuk inson erki uchun kurashga undaydi.

Bugungi yoshlarga havasimiz keladi, chunki ular Navoiyni imkon qadar to'liq anglashga intilishi uchun hamma sharoit yetarlidir. Faqatgina ular bu imkoniyatdan foydalanishlari kerak. Ayniqsa, bugungi xalq dardu-g'ami bilan yashayotgan, san'ati bilan xalq orasiga kirib borayotgan bizning ijodkor yoshlarimiz Navoiy ijodidan zavq olishlari, undan ruhiy quvvat olib olg'a intilishlari, uning ijodi zamirida inson qalbini zabt etuvchi lutf, mehr va insoniy qadriyatlar yashiringanligini zamondoshlariga ko'rsata bilishlari kerak.

Alisher Navoiy adabiyotga kirib kelgan pallalar yurt notinch, millatning ruhi so'niq, bir paytlar jahonga dovruc solgan temuriylar saltanati endi yo'q, uning o'rnida toj-taxt talashib, yurtni egallash payida bir-birlari bilan kurashayotgan temuriyodalar qarama-qarshiliklari kuchaygan, el-ulus besaranjom davr edi. Shunday bir sharoitda, ya'ni adabiyot parokanda, turkiy til qadri susayib ketayotgan bir paytda turkiy adabiyot karvonboshiga muhtoj edi. Taqdir, qismat Alisher Navoiyni ana shunday karvonboshiga, millat ma'naviyatini chirog'boniga aylantirdi. Albatta, bunday xalq qalbidan o'rin olishida shoirning Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Fazlulloh Abdullays singari o'nlab ustozlari ehtirom bilan tilga olinadi.

Navoiy dahosining shakllanishida shoirning otasi G'iyosiddin Muhammad Bahodirning xizmatlari katta bo'lib, bugungi zamon kishisi uchun ham ibratdir. Manbalarda Alisher Navoiy uch-to'rt yoshlarida zamonasining mashhur shoiri shayx Anvarning g'azalini yoddan aytib, mehmonlarni hayratga solgani yoziladi. Aslida, bu lavhada qoyil qolish mumkin bo'lgan ikkinchi bir jihat bor. G'iyosiddin Muhammadning otalik ma'suliyati, farzand tarbiyasiga yondoshuvi, iqtidorini yuzaga chiqarish ishtiyoqi, zamonasining mashhur arboblari, ma'rifat fidoyilari davrasiga olib kirib, farzandini ularning hukmiga havola etishi bola uchun katta imtihon bo'lgan. Shu bois, Navoiy ijodi guldastalari bugungi kunda ham o'z salmoqli o'rniga ega bo'lib, shoir aytganidek:

*Navosiz ulusning navobaxshi bo'l,
Navoiy yamon bo'lsa, sen yaxshi bo'!*

Hozirgi kunda har bir o'zini anglagan va kelajagini to'g'ri qurish uchun intilayotgan avlodlarga aynan "Hayrat ul-abror"dagi ifoda etilgan teran falsafa, "Farhod va Shirin"dagi vafo, sadoqat, mardlik va jasorat, "Layli va Majnun"dagi ishqiy sarguzasht, qahramonlik, "Saddi Iskandariy"dagi odil podsho motivlari, "Lison ut-tayr"dagi

imon, e'tiqod, ma'naviyat durdonalari ma'rifat yog'dusini berishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Amerikalik futurolog olim Elvin Toffer insoniyat boshidan kechirgan tamaddunlarni sanab o'tar ekan, bundan keyin keladigan era, ilm egasi bo'lishini alohida ta'kidlab o'tadi. Demak, yangi asr bilan yuzma-yuz turgan inson o'zini ham, jamiyatini ham faqat va faqat ilmu-ma'rifat bilan o'zgartira olishi mumkin. Bugun buyuk uyg'onish faqat ilg'or mamlakatlar taraqqiyotiga yetib olishdangina iborat emas, balki o'z ma'naviy qadriyatlarini bilish, o'rganish, undan kuch-qudrat olish va bu ma'naviy qadriyatlardan faxrlana bilishi hamdir. Bugungi kunda Navoiyni imkon qadar to'liq anglashga intilish uchun sharoit yaratildi, faqatgina bu berilgan imkoniyatdan foydalanib, kerakli ma'naviy ozuqa olsakkina, ijobiy natijalarga erishamiz. Chunki, Navoiy vujudidan ilm va ma'rifat nuri yoyilib turar, tabiiyki, o'z davrida hamma shu nurga talpinar edi.

"Umidim uldirki va xayolimga andoq kelurki, so'zum martabasi avjdan quyi enmagay va yozgan asarlarimning tantanasi a'lo darajadan o'zga yerni yoq'tirmagay"

Kim ko'rubtur, ey ko'ngul, ahli jahondin yahshiliq...

Buyuk davlat arbobining bunday haroratli so'zlari Hindistondagi Bobur va uning avlodlari faoliyatiga berilgan haqqoniy baho bo'lishi bilan birga, boburiylarning mamlakat tarixida tutgan o'rni va rolini ham xolisona belgilab beradi. Bugungi tezkor jarayonda Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining sermazmun va barakali ijodi bilan jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolardan biri sifatida tarix maydonida o'z o'rniga ega. Haqiqatdan ham, Bobur o'zining qisqa, lekin mazmunli hayoti mobaynida qator she'riy to'plamlar tuzdi, jahonga shuhrati ketgan "Boburnoma" asarini yozdi. "Xatti Boburiy" deb nomlangan yangi alifboni tuzdi, aruz, qofiya, musiqa va harbiy ishiga oid risolalari bilan ilmga ma'lum hissa qo'shdi.

Zahiriddin Bobur hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganar ekanmiz, albatta, uning buyuk shoh, hokim sinfga mansubligi va shu sinf manfaatlarini himoya qilganligini doimo esda tutishimiz lozim. Lekin Boburdagi tabiiy iste'dod uning har tomonlama rivojlangan va qomusiy bilimlarni o'zida mujassamlantirgan shaxsiyati, aql-zakovati, insoniy xislatlari, qolaversa, uning ochiq ko'ngilligi, nozik tabiatligi bizni doimo hayratga solib keladi. Bobur o'z davrida san'at va adabiyotning ulkan homiysi bo'lganligi sabab ham, boburiylar saroyi juda shukuhli, boy va misli ko'rilgan saroy edi. Albatta, bunday saroy va bunday madaniyat o'z-o'zidan qurilmaydi. Shoh va shahzodalar olim, shoir, madaniyatli kishilar bo'lmasalar,



ilm-u madaniyat rivojiga u qadar parvo qilmasliklari mumkin. Ammo, Bobur, uning to'rt o'g'li va bir qizi Humoyun, Komron, Askariy, Hindol va Gulbadan begim ham tarixda chuqur iz qoldirgan shoir, tarixchi, ilmu-san'atni yaxshi o'rganib, o'zlashtirgan kishilar edilar. Ulardan bo'lgan farzandlarning barchasi ham ota-bobolarining izidan borib, atoqli shoir, adib va olimlar sifatida ilm-u san'at rivojiga katta hissa qo'shib keldilar.

Zahiriddin Bobur o'zining murakkab hayot yo'li, ziddiyatli dunyoqarashi, boy adabiy-ilmiiy merosi bilan, ham shoir, ham shoh sifatida jahon madaniyatida katta o'rin tutgan davlat arbobi bo'lishi bilan bir qatorda, o'z farzandlarining

diyonatli, ilm-fazilatli bo'lib o'sishlari uchun alohida e'tibor berib, hamisha ularni o'qish va o'rganishga targ'ib qiluvchi ota edi. Ularning o'rganishi uchun kitob tanlab yuborish, kitoblar yozishni otalik va podshohlik burchi deb hisoblardilar. Albatta, Boburning bunday say'-harakatlari zoye ketmadi. Boburning to'ng'ich o'g'li Humoyun Mirzo ham otasidek iste'dodli shoir bo'lib, podshohlik yumushlari, ichki va tashqi dushmanlar, ukalari va g'anamlar bilan to'xtovsiz olib borgan janglaridan ortib, bir qancha g'azallar, ruboiylar, qit'alar va bir devon yozib qoldirgan.

Bobur farzandlaridan yana biri Komron Mirzo ajoyib iste'dodli, shirinkalom shoir bo'lib, o'zbek tilida she'rilar yozgan. Shunisi ahamiyatliki, undan o'zbek va dariy tillarida yaratilgan jozibali g'azal, ruboiy, qit'a, masnaviy va fardlardan iborat to'liq devon qolgan. Askariy Mirzo va Hindol Mirzolar ham zabardast, nozikta'b va iste'dodli shoirlar bo'lib, o'z davrida ajoyib namunalar bitib qoldirganlar. Shoirning hayo va iboda, husn-latofatda go'zal bo'lgan qizi Gulbadanbegim to'rt yoshida otasidan ayrilgan bo'lsa-da, otasining tarixchilik iste'dodini meros qilib olib, akasi Humoyun Mirzoga atab mashhur "Humoyunnoma" asarini yozdi. Humoyunnoma asarining bugungi kundagi ahamiyatli tomonlaridan biri, asarda HUMOYUN QANCHALIK MAQTALGAN BO'LSA, Komron Mirzo shunchalik qoralangan., asar o'z davrini aks ettiruvchi tarixiy asar bo'lib, adolatli va adolatsiz hukmdorlar, ularning ayanchli

taqdirlari va qismati haqida ixcham va ravon uslubda yozilgan.

Bobur hamda boburiy shahzodalarining asarlari-yu ma'naviy merosiga nazar tashlar ekanmiz, ularda insoniy his-tuyg'ular yuksak san'at va mahorat bilan ifoda etilgan. Ularning ijodlarida o'z davridagi jamiyat illatlariga dadillik bilan kurash g'oyasi ilgari suriladi. Shu bilan bir qatorda, shoir haqiqiy inson nomiga ega bo'lish uchun axloqning barcha normalariga rioya qilish kerakligini, shundagina kishi el hurmati bilan katta baxtga sazovor bo'lishi mumkinligini uqtiradi.

Shoir ijodida haqiqiy inson yuqori pog'onada turadi, ulug'lanadi. Bobur inson qadr-qimmatining baland bo'lishi kerakligi, amal, davlatga erishib g'ururlanmaslik, oddiy insoniy fazilatlarining kamol topishini istaydi. U xalq manfaatlarini hech qachon unutmaslikni ta'kidlaydi:

*Davlatka yetib mehnat elin unutm,
Bu besh kun uchun o'zungni asru tutma,
Borg'onin kel emdi, yod qilmay, ey do'st,
Borish-kelishingni lutf etib o'ksutma.*

Qunduz NISHONBOYEVA,
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasi dotsenti



#Ustozingiz haqida...

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado haqqin oning yuz ganj ila.*

Donishmandlardan biri bu hayotda hamma bir-biriga ustoz-shogirdir degan edi. Darvoqe, bilim olish yoki uni ulashishda yoshning, mavqe va mansabning ahamiyati yo'q. Yaxshi shogird bo'lish esa hammaga ham nasib etavermaydi. Turli turmush tashvishlari bilan bo'lib, bizga o'z bilim va ko'nikmalarini ayamagan ustozlarimizdan xabar olishni, ularga ehtirom ko'rsatishni unutib qo'yamiz. Nari borsa, 1-oktabr kuni erinib yoki ko'z-ko'zga tushganda uyalib qolmaslik uchun tabriklab qo'yamiz. Ikki enlik

xabar yo'llaymizmi-yo'qmi, yana o'z tashvishlarimizga sho'ng'iyimiz. Shundoq yonginamizda yuksak dovonlar oshib kelayotgan matonat va ibrat kishilari yashamoqda. Tahririyatimiz jamoasi ham institutimizda uzoq yillardan beri mehnat qilib kelayotgan ustozlarni ehtirom etishni lozim topib, "Ustozingiz haqida" nomli rukn ostida shogirdlarning samimiy dil izhorlarini havola etib borishni niyat qildi, Quyida berilayotgan shogirdlar tomonidan yo'llangan ehtirom maktublaridan biri e'tiboringizdan chetda qolmaydi degan umiddamiz.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor **Hamida Mahmudova...** Bu inson haqida gapiradigan bo'lsam, men u kishini talabalik davrimdan buyon bilaman va taniyman. O'qib yurgan vaqtlarimda ustozni judayam qattiqo'l va jahldor bo'lsa kerak deb o'ylardim. Keyinchalik o'qishni bitirib magistraturaga o'qishga kirdim. Menga ilmiy rahbar sifatida Hamida Mahmudovani tayinlashdi va men ularning kursidagi dars mashg'ulotlariga kirib, dars o'tish jarayonini kuzata boshladim va ularning qanday mutaxassis ekanligini va insoniy jihatlarni o'zim uchun kashf eta boshladim. Ustoz o'z ishiga nihoyatda jiddiy qarashini, kursidagi har bir talabaga e'tiborligini, qattiqo'lligi ortida katta mehribonlik borligini, pedagog sifatida katta tajribaga ega bag'rikeng, adolatli, g'ayratli va o'z kasbining fidoyisi ekanliklarini anglab yetdim.

Hamida opam har bitta talabani o'z farzandidek yaxshi ko'radilar, darslarda ham shunchaki pedagog-talaba bo'lib emas, ustoz-shogirdlik munosabatini shakllantiradi. Har bir talabaning tabiatidan kelib chiqib ishlaydi, o'zi o'qitayotgan bolalarga bo'lajak shaxslar deb yondoshadi va talabalarda ham o'ziga va o'z izlanishlariga shunday yondashuvni o'stirib boradi. Kursdagi har bir bo'lajak rejissyor, aktyorlarning fikrlarini toqat bilan eshitadi, ularni fikrlashga va o'z fikrini erkin bayon qilishga undaydi. Mahorat darslarida, rol ustida ishlagan-

da vazifaning katta-kichikligidan qat'iy nazar, har bir talaba olib chiqayotgan personaj, sahna, har bir so'z ustida soatlab ishlaydi, talabani har qanday asarning tub ma'nosini anglashga o'rgatadi.



Hamida Mahmudova bo'lajak rejissyorlarga biror asarni oldingmi, unga shunchaki yondoshma, asarni "kovla", muallif nima demoqchi, avvalo shuni tushunib ol va o'zing bu asarga nima maqsadda qo'l urayotganingni anglab yet, deb uqtiradi. Asar orqali aytmoqchi bo'lgan o'z fikring, g'oyang aniq bo'lsin, spektakl sahnalashtirish murakkab ish, shunchaki yondashishga o'rganmanglar, vaqt kelib, teatrga ishga borganlaringda hamma sizlardan faqat professional ish kutadi. Aktyorlar bilan ishlash, asarni chuqur tahlil qila olish va uni aktyorlarga

to'g'ri tushuntirish rejissyorning salohiyatini belgilaydi.

H.Mahmudovani yoshiga nisbatan g'ayrat-shijoati kishida havas uyg'otadi, o'z kasbini sevishi, ijodkorni tarbiyalashdek mashaqqatli ishda amaliy va nazariy tajribasi kattaligi, ijodkor-rejissyor sifatida ham o'z yo'li, uslubi borligi bilan ajralib turadi.

Bu soha u kishining hayoti mazmuniga aylangan. Buni uyida ham, dam olish kunlarida ham, hatto betob bo'lgan paytlarida ham dars va talabalari haqida o'ylashidan, talabalari bilan gaplashib, fikr almashib, ijod qilib zavq olishidan bilaman. Bunday holatlarga juda ko'p misol keltirish mumkin. Yaqinda kursimiz bilan A.Dudarevning "Xaroba" pyesasi asosida spektakl sahnalashtirdik. Shu asarda 9 ta personaj bo'lsa, Hamida opa har bitta rolni ijro qilayotgan talaba bilan birga yashaydi. Talaba sahnada, Hamida opam tomosha zalida turib ham ularning ijrosini nazorat qiladi, ham personajning holatini bir vaqtning o'zida ichidan kechiradi. Talaba ijro vaqtida yig'lasa yig'laydi, kulsa kuladi. Talaba rolining qaysidir harakatini tabiiy ko'rsatolmasa, holatini to'liq his qila olmasa, Hamida opaning o'zi namuna ko'rsatadi. Ustoz hozirda 73 yoshda, ammo u kishisi sahnada 20 yoshli qizni shu qadar tabiiy, jonli ijro qilib ko'rsatganiga o'zim guvoh bo'lganman. U kishi o'rgatish asnosida shunday ijro qiladiki, a'lo darajagi pedagogligining asosida katta ijodkorligi, mahorati yotishini ko'rib tan berasiz.

Hamida Mahmudovani o'z kasbiga bo'lgan mas'uliyati, mehri va sadoqatiga havas qilaman. Kelajakda ular kabi san'atkor-pedagog, kuchli ruhiyat va mahorat egasi bo'lishni istayman. Shuning uchun ularning har bir darsida yonida turib, tajribasini o'rganishga, talabalarga bergan sabog'idan o'zimga bilim olishga, o'z ustida ko'proq ishlashga harakat qilaman. U kishidek Shaxs-pedagog bo'lishni niyat qilaman.

Ustozimning quyidagi gaplarini hamisha tahli qilib yuraman: boshqalar bilim beradi, biz pedagoglar ham bilim, ham tarbiya beramiz – shaxsni tarbiyalaymiz. Yangilik – bu unutilgan eskilik. Bizning soha bu ishlab chiqarish emas, biz inson qalbiga ta'sir qilamiz va uni poklashga xizmat qilamiz. Rejissyor bir tomonlama bo'lishi kerak emas, u ham pedagog, ham rejissyor bo'lishi lozim.

Doim sog'salomat bo'lsinlar. San'atimiz qanday yaxshi natijaga erishsa, ularning ortida, albatta, Hamida opa kabi ustozlarning zahmatli mehnati yotadi. Ustozga mehnatlarining samarasini ko'rib yurishini, shogirdlariga bergan bilimidan yuzlari yorug' bo'lishini ti-layman. Bo'lajak yosh aktyorlar va rejissyorlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi shamchiroq bo'lib porlab tursinlar, baxtimizga umrlari uzun bo'lsin.

Feruza KARAYEVA,
"Musiqali dramatik teatr aktyorligi"
kafedrasida o'qituvchisi

Har qanday kasb-kor egasi o'zining imidji va professiogrammasi bilan ajralib turadi. Imidj va professiogramma shunchaki xislatlar emas, ular kasb-kor egasining ijtimoiy hayotidagi o'rnini, jamiyat va taraqqiyot talablariga muvofiq keladigan fazilatlarini o'zida mujassam etishidir. Agar gap madaniyat xodimi imidji ustida ketadigan bo'lsa, avvalo, unga ijtimoiy hayot, jamiyat va taraqqiyot qo'yadigan talabalarni eslash lozim. Madaniyat xodimi o'zining xalqqa, millatga zarurligini ana shu talablarni o'z faoliyatida va xulq-atvorida mujassam etishi bilan isbot etadi. Xo'sh, bu talablar nima, ular zamonaviy kadrlarimiz professiogrammasida qanday aks etmoqda?

Madaniyat xodimi universal xususiyatlarga ega ekanligi bilan farq qiladi. U faqat madaniyat muassasalarini boshqarish, ommaviy badiiy tadbirlarni uyushtirish, kitob xizmatini uyushtirish bilan chegaralanib qolmaydi, madaniyat fenomenining keng qamrovliligi uning faoliyatini belgilab beradi. Bugun madaniyat xodimi mahalla, oila, tarbiya, targ'ibot, ijtimoiy faoliyat, hatto kitob savdosi bilan ham shug'ullanayotgani uning universal sifatiga ega kasb-kor egasi ekanidan dalolat beradi. Madaniyat fenomenining universal xususiyati madaniyat xodimini universal kasb-kor egasiga aylantirgan.

Madaniyat xodimining imidji ijtimoiy-madaniy hayotini tashkil etish va boshqarishga bevosita bog'liq. Hatto u teatrdan ma'lum bir obrazni yarata-yotganidan yoki doirasi bilan sahnaga,

MADANIYAT XODIMINING IMIDJI

kishilar davrasiga chiqqanida ham ijtimoiy-madaniy hayotga ta'sir etadi, uni boshqarishga hissa qo'shadi. To'g'ri, bu bilvosita boshqarish, aslida madaniyat va san'at mana shu xususiyat tufayli kishilarda qiziqish uyg'otadi, ularda badiiy-estetik tuyg'uni, didni va ijod qilish ishtiyoqini shakllantiradi. "Kishilarning badiiy-estetik olamiga ta'sir etmaydigan san'at – bemaqsad otilgan o'qdir" (A.P. Chexov).

Madaniyat xodimi imidjida ijtimoiy-madaniy hayotni bevosita boshqarishga qaratilgan faoliyat ham yetakchi o'rinda turadi. Institutimizda bu yo'nalishda maxsus kadrlar tayyorlanadi, maxsus predmetlar va kafedra mavjud. Mazkur yo'nalishni bitirgan kadrlarimiz ijtimoiy-madaniy hayotimizning turli ko'rinishlarida xizmat qilayotgani ularning jamiyatdagi o'rnini ifoda etmoqda.

Obyektiv va subyektiv to'siqlarga qaramay, ular madaniyatning gumanistik vazifasini ijtimoiy hayotga olib kirayotgani, shubhasiz, institutimizning yutug'i. Shu bilan birga, davr, taraqqiyot talablari madaniyat xodimlari imidjiga innovatsiyalar olib kirishga undamoqda. Bu avvalo, badiiy-estetik ijod va kitobxonlik imkoniyatlaridan samarali, goho noordinator, no'anaviy usullardan foydalanishga taalluqli. Masalan, biz hanzugacha kitob targ'ibotini kutubxona yoki kitob do'konini bilan chegaralab qo'ymoqdamiz. Nima uchun ommaviy-axborot

vositalarida "Kitob-shou"lar uyushtirish mumkin emas? Nima uchun odamlar gavjum maydonlar va bozorlarda kitoblar rastalari, ularning jonli targ'ibotini tashkil etish mumkin emas? Madaniyat xodimi aholini, retsiyentni oldiga borganidagina o'z vazifasini samarali bajarishi mumkin.

Madaniyat xodimi imidji uning o'z vazifasini professional darajada bajarishi bilan bog'liq. Bu o'rinda har bir madaniyat xodimi o'zining kasb-korini mukammal egallashi nazarda tutiladi. Tashkilotchining kasb-kori auditoriyani topish va ularga zarur xizmat turlarini uyushtirish, rejissyor aktyorlarni sahnaga, tomoshalar uyushtirishga tayyorlash, bastakor musiqa asarini tomoshabinda badiiy-estetik ruhni uyg'otish, bibliograf kitoblarni guruhlab, ulardagi informat-siyalarni o'quvchiga yetkazish kabi vazifalarni professional darajada bajarishdadir. Har bir madaniyat xodimi aniq bir ijtimoiy-madaniy faoliyat turi bilan shug'ullanadi, bu esa undan shu faoliyat turini aniq bilishini va bajarishini taqozo etadi. Professionalizm kam joyda "ustoz ko'rmagan shogird – har maqomga yo'rg'alar" prinsipi bilan shakllanadi. Biror sohani professional darajada egallamay, samarali faoliyat yurituvchi madaniyat xodimi bo'lish mushkul.

Madaniyat xodimi imidjida kommunikatsiya, muloqot qilish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. "Muloqot insondagi

eng go'zal, arzon va tuganmas boylik" (Ekzyuperi). Ushbu boylikdan foydalanish texnikasini egallash goho aniq faoliyatdagi kamchilikni, qusurni berkitishi mumkin. Madaniyat xodimining muloqot texnikasi auditoriyani birlashtiradi, unda ijobiy fikr, ijodga, o'z kuchiga ishonch uyg'otadi. Shunday ekan, ushbu boylikdan foydalanish san'ati kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishi hisoblanadi.

Madaniyat xodimining imidji qotib qolgan va barcha sifatleri aniqlangan kasb-kor ko'rsatkichi emas. U ijtimoiy hayot va taraqqiyot talablariga muvofiq boyib, transformatsiyaga uchrab, modernizatsiyalashib boradi. Umuman, o'zining professional shakllanishini ko'zlagan har bir madaniyat xodimi o'zining imidji haqida qayg'urishi lozim. Bu imidjga uning o'z faoliyatini aniq bilishdan tortib, so'zi, muloqoti, imo-ishorasi, xulq-atvori va kiyinish madaniyati ham kiradi.

Imidj – xodimning o'zi. El-yurt, kishilar oldida o'zingiz haqingizda ijobiy fikr, avtoritet shakllantirmoqchimisiz?

Imidjingizni shakllantiring! Hayotdagi yutug'ingiz imidj orqali shakllanishingizni unutmang. "Imidj-yarim yutuq" (R.Kiyosaki). Qolgan yarmini el-yurt, kishilar shakllantiradi.

Viktor ALIMASOV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" kafedrasida professori

“XAROBA” SPEKTAKLI TALABALAR SAHNASIDA

Jahon adabiyoti durdonalari o‘zbek teatri sahnasiga 1920-yillardan Shiller-ning “Makr va muhabbat” asari orqali kirib keldi. Bu esa tarjima asarlariga bo‘lgan e‘tiborning kuchayishiga turtki berdi desak, adashmagan bo‘lamiz.

Bu an‘ana O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti teatr san‘ati yo‘nalishi talabalarining diplom spektakllarida ham o‘z aksini topib kelmoqda. Bunga institutning o‘quv teatr sahnasida namoyish etilgan “Medeya”, “Otello”, “Gamlet”, “Nil minorasi”, “Revizor” kabi bir qator spektakllarni misol qilishimiz mumkin. Aynan shu asarlardagi qahramonlar qiyofasini mahorat bilan ijro etish talabalarini aktyorlik qobiliyatlarini yanada shakllanishiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda institutda tahsil olayotgan teatr san‘ati fakulteti talabalarining diplom spektakllari muvaffaqiyatli tarzda namoyish etilishi, aktyorlik mahorati ustozlarining mashaqqatli mehnatlari evazigadir.

Shuni alohida aytish kerakki, spektakl taqdim etilishini eshitgan tomoshabinning ilk savoli kurs rahbari kim ekani bilan qiziqishidan boshlanadi. Chunki, aktyorlik mahorati ustozlarining har birida, o‘ziga xos maktabi shakllangan, albatta, ular sahnalashtirgan spektakllarning badiiy saviyasi, aktyorlik mahorati kabi ko‘plab jihatlar muxlis uchun qiziqarli jarayon hisoblanadi. Aytish joizki, bugungacha diplom spektakllarning ko‘pchiligi anshlag darajasida namoyish etilmoqda. Bu albatta, bir tarafdan ustozlarga bo‘lgan e‘tibor bo‘lsa, yana bir tarafdan diplom spektaklga tanlagan asarning o‘ziga xosligi bilan ajralib turishidir.

Yaqinda o‘quv teatrida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Hamida Mahmudova badiiy rahbarligida namoyish etilgan spektakl bunga yaqqol misol bo‘la oladi. 3-kurs “Dramatik teatr rejissyorligi” bo‘limi talabalarining “Aktyorlik mahorati” fanidan diplom spektakliga belorussiyalik dramaturg va ssenarist Aleksey Anufriyevich Dudarev qalamiga mansub “Xaroba” (Sharof Boshbekov tarjimasi) asarining tanlanishi va namoyish etilishi mutaxassis va tomoshabinlarga ma‘qul bo‘ldi.

Xaroba... bu so‘zni eshitgan insonning ko‘zi oldiga tashlandiq, inson o‘ziga ep ko‘rmaydigan, kimsasiz bir joyning tasavvuri paydo bo‘ladi.

Haqiqatdan ham tomosha zaliga kirib kelishimiz bilan sahnadagi xaroba ahvoldagi muhitga ko‘zimiz tushadi. Undagi sahna bezagi, ssenografiya voqealar rivojiga asos bo‘lishi tomoshabinni yanada o‘ziga jalb etadi. Shuhrat Abdumalikov ssenografiyasi yuksak badiiy did bilan o‘sha davr muhitini aks ettirgani bilan e‘tiborli. Ushbu spektaklda ishtirok etgan personajlarning o‘ziga yarasha salobati, ichki dardi, matonatli kuchi bor. Ularning har biri og‘ir yuk bilan yashaydi. Demak, ularni bir so‘z bilan aytganda, jamiyat qurbonlari deyishimiz mumkin. Asar psixologik drama ekanligi bilan tomoshabinni sehlrab qo‘yadi.

Sahna asaridagi voqealar Rossiyada 1988-1989-yillarda bo‘lib o‘tgan. Xaroba, yotoq joylari bir ahvolda, ust-boshlari har kuni kiyilaverganidan kiri o‘ziga singib ketgan, sochlari to‘zib ayancli ahvoldagi Pifagor, Ayyor, Qo‘ychivon (Alyosha), Afg‘on hamda Dotsentlarni ko‘rish mumkin. Bu qahramonlarning

qaysidir ma‘noda o‘z ayblari, kamchiligi va eng asosiysi gunohlari ularni shu “Xaroba”ga yetaklab kelgandek go‘yo. Bu ayni haqiqat. Chunki, ular o‘z ayblarini yuvish uchun ham shu yerdaligi spektakl voqealarining rivojida o‘z-aksini topib boradi.

Pifagor – Nabijon Bozorov (3-dramatik teatr va kino aktyorligi kursi talabasi) ijrosida og‘ir, vazmin, aytmoqchi bo‘lgan so‘zini imkon qadar o‘ylab, suhbatdoshiga gapiradigan inson. Ayniqsa, bugungi kuni hayoti davomida faqat sabr bilan oxirgi kunlarini kutayotgan mo‘ysafid bir cholg‘a o‘xshaydi. Uning har bir so‘zi, sukut saqlab insonlarni kuzatishi, qarashlari chuqur ma‘noni anglatadi. Qadamlarida vazminlik seziladi. Qo‘lidagi injil kitobini qo‘ymay o‘qishi, tangridan iltijo qilishiga ishoradir. Pifagor spektakl davomida tomoshabin uchun o‘ta sirli shaxsligi bilan ajralib turadi. U davrning taqozosi bilan armiya safida xizmat qilib, keyin (KGB) milliy xavfsizlik xizmati tashkilotining xodimi bo‘lib ishlaydi va insonlarga tazyiq o‘tkazib, ko‘plab insonlarni otib tashlab yostig‘ini quritgan jirkanch shaxs. Tug‘ishgan akasining bilib-bilmay tasodifan qotiliga aylangan, yillar o‘tgan sari vijdoni azoblanadi ham...

Spektaklda turli qiyofalar mavjud ammo, barchasining o‘z o‘tmishi, o‘z hayot yo‘llari bor. Ularning hayotlari go‘yoki, o‘qilmagan kitobga o‘xshaydi...

Ayyor bo‘lsa, o‘zining hazil-huzullari bilan yon-atrofidagilarni biroz chalg‘itgandek bo‘ladi-yu, ammo ichidagi dardi, armoni ichini olovdek yoqadi. Murodjon Turdiyev ijrosidagi Ayyor roli go‘yo unga yozilgandek, o‘ziga mos tushgani e‘tiborlidir. Uning yuqoriga va pastga sakrab chiqishi va tushishi goh sahnaning burchagida bo‘lsa, yengil harakatlari bilan bir zumda sahna markazida paydo bo‘lishi, aktyorlik plastikasi Ayyor rolini yanada ta‘sirli ijro etishiga yordam berdi. Murodjon Turdiyev ijrosida qahramoni xarakterlarini ochishda ishonarli xatti-harakatlar bilan ijobiy natijalarni ko‘rsatdi. Spektaklda barcha qahramonlarning ayancli taqdir-lari voqealar rivoji orqali tomoshabin ko‘z o‘ngida goho kulgili, goh ko‘z yoshlar sabab yechim topib boraveradi. Ayyor bir qarashda ozg‘in jussasi bilan tomoshabinni rahmini keltirsa, ba‘zan o‘yga cho‘mdiradi. Uning o‘ziga-o‘zi taskin berishi, telefon go‘shagini ko‘tarib, uzoqlardagi (ajralishgan) turmush o‘rtog‘i bilan gaplashishi unga qaysidir ma‘noda yupanchiqdek tuyuladi. Shu bilan bir oz bo‘lsa-da, o‘zini baxtli insondek his qiladi. Uning parchalangan yuragi faqatgina yashashi uchun urayotganini ko‘rsatib turadi, go‘yo.

Spektakl davomida tomoshabin kutilmaganda shiddatli voqealar girdobiga kirib boradi. Voqealar rivojlangan sari tomoshabin har bir personaj taqdiriga yanada qiziqqa boshlaydi. Namoyish chog‘ida tomoshabinlarning ko‘z uzmay, voqealar rivojini sergaklik bilan kuzatishi, aktyor bilan yonma-yon partnyor qahramonlarga nisbatan nafratlanib tomosha qilishi spektakl yutug‘idan dalolat beradi. Bu kabi holat tomoshabinlarda kamdan-kam kuzatiladigan jarayondir.

Spektaklda barcha tomoshabinni rahmini keltirgan yana bir qahramon e‘tiborimizni tortadi. Bu ham bo‘lsa, Qo‘ychivon. O‘zi asarda asli Alyosha deb nomlangan, o‘zbek tiliga tarjima qilinganida Qo‘ychivon deb tilga olingan. Balki, ismi biroz bo‘lsa-da, haqiqatga yaqindir, uning shu holatga tushishiga sabab bordir. Uning taqdir yo‘llari atrofdagilarnikidan tubdan farq qiladi. Uning baxtli bolaligi deyarli bo‘lmagan, desak to‘g‘riroq bo‘ladi. Chunki, ota mehri-ga to‘ymagan farzand buvisining qo‘lida katta bo‘lgan. Otasining qamalishi oilaning parokanda bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Onasining boshqa bilan turmush qurishi va o‘gay otasidan farzand ko‘rishi Qo‘ychivon (Alyosha)ni mehrga tashna qalbida bo‘shliq paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Yillar o‘tib, ulg‘aygan Qo‘ychivon armiya xizmatida jabr ko‘radi. Uning qo‘rqoqligi, ojizligi, xo‘rlangan qalbiga yanada jarohat berilishi batamom qaddini bukib qo‘yadi. Unga qilingan zo‘ravonlik hayotning achchiq qismatiga aylanadi. Shu tufayli atrofdagi odamlardan ularning jabr-sitamlaridan qo‘rqib, yuzi so‘lg‘in yashaydi. Ammo, o‘zi birovga ozor bermaydigan, qo‘lidan kelsa faqat yaxshilik qiladigan xokisor yigit. Spektakl davomida ba‘zi tomoshabin uni soddaligi, kamgapligi hatto qo‘rqoqligi uchun kamsitib yomon ko‘rishi mumkin. Ammo, uning ayancli o‘tmishi, uning shu darajaga tushishiga sababchi kimsalarni bilgach, uni hayot uchun kurashishga chorlaydi.

Qo‘ychivon-Farruxjon To‘rayev ijrosida kamtarin, ojiz yigit timsolini namoyish etgan. Uning qo‘ydek “yuvosh”ligi, qo‘rqoqligi, kamsuqumliligi va kezi kelganda, haqiqatga tik boqishi, u uchun har narsadan ustundek ko‘rinadi. Taxqirlangan, taqdir taqozosi bilan jabrlangan Qo‘ychivon yaqinlarining beparvoligi tufayli shu kuyga tushadi.

Dotsent – Ozod Qayumov tomonidan ijro etilgan. Dastlab talabaning spektaklga kirishishi, qahramonining ichki holatini aks ettirishi tomoshabin uchun oddiy ko‘rinadi. Ammo, spektakl davomida partnyorlarining ta‘sir kuchi orqali undagi ichki dard, og‘ir monolog va dialoglar orqali ishonarli ochib bera boshlaydi. Spektaklda dotsentning tashqi ko‘rinishi, salobatli bo‘y-basti, o‘ziga ishongan dadil so‘zlari unga nisbatan tomoshabin-da ijobiy tassurotlar uyg‘otadi. Ammo “guruch kurmaksiz bo‘lmaganidek”, undagi oq ko‘ylagiga taqilgan bo‘yinbog‘i, lavozimdan-lavozimga ko‘tarilishining asl sababchisi, ming afsuski, turmush o‘rtog‘i Vita edi. Xarobaga nima sabab bo‘ldiki, o‘z oyog‘i bilan kirib keldi. Chunki, bir paytlari nafs yo‘lida hech narsa ko‘ziga ko‘rinmay, ishlarini oson bitkazib bergan Vita (xotini) bugun unga kerak emas. Chunki, mansabga ko‘tarilishida, ba‘zan muammoli vaziyatlarni yechimida o‘z jufti halolidan “ermak qo‘g‘irchoq”dek foydalangandi.

Ayol ojiza-da, uning uchun oilasi doim muqaddas, hatto erining tushkun kunlarida o‘zini oyoq osti bo‘lishiga ham ko‘nikkan. Ammo, spektakldagi Vita mag‘rur, boshini baland ko‘tarib, erini shu jirkanch, xarobadagi insonlar orasida qolishiga qarab turolmaydi. Ichki iztiroblarini dangal gapirib, ko‘z yosh-

larini ko‘rsatmaslikka harakat qiladi. Bu ayoldagi sabr-bardosh, irodali ekaniga ishoradir.

“Aleksey Anufriyevich Dudarevning “Xaroba” asarini 2-kurs talabaligimda o‘qib, aynan Afg‘on qahramonining taqdiriga juda qiziqqanman” – deydi, 3-dramatik teatr va kino aktyorligi kursi talabasi Mansur Hamzayev. Haqiqatdan ham, spektaklda Afg‘on roli barchamizni e‘tiborimizni befarq qoldirmadi. Afg‘onning salobati, o‘ychan ko‘z qarashlari tomoshabinni chuqur mulohazaga chorlaydi. Chunki, zabonsiz yigitning so‘zsiz nigohi tomoshabinda uning hayot yo‘li, qay tarzda o‘tganlini bilgisi keladi. Uning shahdam qadam tashlashi, o‘ychan ko‘rinishi afg‘onistonda xizmat safarida jabr ko‘rganiga ishora beradi. Afg‘on xizmat o‘tayotgan chog‘ida yaqin do‘sti bilan asirlikka tushadi. Kutilmaganda dushman changalidan qochishida do‘stining Afg‘on uchun jonini fido qilishi, o‘zi esa dushman qo‘lida vafot etgani uni doim azoblaydi. Chunki, do‘stining o‘limiga go‘yo o‘zini sababchidek his qiladi. Shuning uchun ham doim o‘ychan, doim ayborlik hissi uni bir og‘iz so‘z aytishiga jur‘ati yetmaydi. Bilganlari, ko‘rganlari o‘zi bilan o‘zi kurashadi, hatto tevarak atrofida sodir bo‘layotgan hodisalarga beparvo bo‘ladi. Ammo, uning ham butun yillar yig‘ilgan haqiqatlari yuzaga chiqib ichki monolog jaranglaydi. Tomoshabin bu holatda M.Hamzayev ijrosidagi Afg‘onning boshidan kechirganlariga sherik bo‘lib, uning zabonsiz bo‘lishiga sababchi misollarni guvohiga aylanadi.

Mansur Hamzayev Afg‘on rolini ijro etishda, bir hafta mobaynida tinimsiz qahramoni ustida izlangan, qayta-qayta repetitsiya qilib, kamchiliklarni to‘ldirgan. “Shu bir hafta tinimsiz mehnatim, rolim ustida ishlaganim, menga uch yillik olgan aktyorlik mahoratimga teng keldi”, – deydi talaba. Darhaqiqat, intilganga tole yor, insoniyat kurashuvchan, oldinga dadil qadam tashlashi bilan birga, maqsadini katta qilishi shu bilan birga mehnatsevar bo‘lishi shu kabi misollarda o‘z aksini ko‘rsatadi.

Har bir bo‘lajak aktyorlarning sahna madaniyati, ularning partnyorini eshita bilishi, voqealar rivojini ta‘sirli bayon etishlari barchani e‘tiborini tortdi.

Asarni sahnalashtirishda rejissyor O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Hamida Mahmudova har bir obraz uchun aktyorlarni to‘g‘ri tanlashi bilan birga, ularning oldiga katta vazifa bergan. Shu bilan birga tomoshabin oldida iqtidorlarini namoyish etishlariga imkoniyat yaratib bera olgan, desak adashmagan bo‘lamiz.

Biz shuning uchun har har bir asarni o‘qishimizda, spektaklni shunchaki emas, balki, taqdirning qismatiga e‘tibor berib tomosha qilishimiz lozim. Dramaturg, yozuvchi nima demoqchiligi, qahramonlarining atrofida sodir bo‘layotgan jirkach ishlar, soxta qarashlar ular jamiyatga kerakligi va keraksiz insonlar ekanini biz tomoshabin va mutaxassis sifatida ko‘ra bilishimiz lozim. Ushbu spektakldagi barcha qahramonlar asosiy qahramon sanaladi. Ularning har birida tomoshabin uchun to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi haqiqat yo‘li bor. U dramaturgning muvaffaqiyatli asari ekanidan dalolat beradi.

Matluba ISOQOVA,
“San‘atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida dotsent v.b.

ABDULLA AVLONIY VA TURON TEATRI



Abdulla Avloniy (1878–1934) XX asr bo'sag'asida yangi zamon o'zbek madaniyatining eng yirik namoyandasi sifatida maydonga chiqadi. U 1878- yilning 12-iyulida Toshkentning Mergancha mahallasida, to'quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. U o'qchidagi eski maktabda, so'ng madrasada o'qiydi. Mustaqil mutolaa bilan shug'ullanadi. Arab, fors, rus tilarini o'rganadi.

1904-yilda Mirobodda, so'ngra Degrezlikda yangi usulda, yangicha maktab ochib, o'zi dars berdi, o'quvchilar uchun darsliklar yozdi.

Avloniy ham taraqqiychilar bilan sheriklikda shirkatlar tuzadi, "Taraqqiy", "Shuhrat", "Osiyo", "Turon" gazetalarini ta'sis qiladi. 1918-yilda Turkiston sho'rolar hukumatining birinchi gazetasi "Ishtirokiyun" ning tashkilotchilaridan va uning birinchi muharrirlaridan bo'ldi.

O'sha davrda o'zbek milliy dramaturgiyasi xazinasiga o'zining "Advokatlik osonmi?" (1914), "Pinak" (1915) komediyalari, 1914–1917-yillarda yozgan "Biz va Siz", "Portugaliya inqilobi", "Ikki sevgi" kabi davr muammolari aks etgan asarlari bilan munosib hissa qo'shdi. 1913-yilda "Turon" teatr truppasini tashkil etishda va uning ishida faol qatnashdi.

O'zbek dramaturgiyasining paydo bo'lishi va xalq orasida unga mehr uyg'otishda truppa va uning rahbari Avloniy muhim rol o'ynadi. "Advokatlik osonmi?" komediyasida advokat Davronbek orqali Turkistonda mavjud bo'lgan huquqsizlikni hamda dunyo voqealaridan bexabarlikni fosh etadi. Shu bilan bir qatorda qimorbozlar obrazi orqali xalqning ma'naviy turmushining tuban bir holga kelib qolganligini zo'r mahorat bilan ko'rsatib berdi.

"Advokatlik osonmi?" pyesasi mavzu doirasining kengligi va badiiy darajasining pishiqligi bilan 1914-yilgacha yozilgan asarlarining yetuklari qatoriga kiradi. Mazkur asar mavzu va personajlarning ko'proq badiiy to'qima yo'li bilan tasvirlanishi, shu davrdagi boshqa dramalarga xos pand-u nasihatning imkon qadar chegaralanganligi pyesaning o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Asar bosh qahramoni advokat Davronbekning so'zlarida nasihat va va'zxonlik mavjud bo'lsa-da, u umrida ko'p muammolarga duch kelgan, hayotiy muammolarni yengib o'tishga intilgan, baxtli hayot uchun kurashga otlangan inson sifatida namoyon bo'ldi.

Muallif nazarida boshiga ish tushgan bu kimsalarning og'ir qismatiga sabab, avvalo, zamon va unda mavjud tartibotlarning norasoligi bo'lsa, oxir-oqibat insonlarni asir qilib olgan qoloqlik muhiti, fuqarolarning sustkashligidir. Abdulla Avloniy pyesadagi g'aflatda qolgan personajlar ahvoliga achinish hissi bilan birga ularni zamon tartibotlarini, o'z haq-huquqlarini bilmaslikda ayblaydi. Bu qoloqlik, bu laqmalik va bilimsizlik asarning bosh qahramoni Davronbekning xalqdan, xalqning esa Davronbekdan bezor bo'lishiga sabab bo'ladi.

Asarda Davronbekka ko'mak istab kelgan kimsalarning har biri o'z dardlariga malham istaydilar va buni Davronbekdan ololmagach, amlariga chiday olmay "eplolmas ekansan, advokatlik qilib nima qilarding?" – ma'nosida, unga "Advokatlik osonmi?" savoli bilan ta'na qilib chiqib ketadilar. Muallif bu voqealar orqali qonun ustivorligi bo'lmagan mamlakatda hech qanday rivojlanish va huquq erkinliklari bo'lmashligini amalda isbotlab beradi.

Abdulla Avloniyning barcha pyesalari sahnabop bo'lib, bunday imkoniyatlarni "Advokatlik osonmi?" asarida ham kuzatish mumkin. U ijro uchun qulay, talqinida improvizatsiyaga keng imkoniyat ochib beradigan asar bo'lganligi tufayli "Turon" sahnasidan tashqari ko'pgina boshqa havaskor jamoalar e'tiborini ham o'ziga tortdi. Birgina "Turon" teatrining o'zida Mannon Uyg'ur 1918–1919-yillari komediyani ikki bor sahnalashtirdi, spektakl repertuardan mustahkam o'rin oldi va aktyorlar uchun ma'lum darajada mashq maktabi vazifasini o'tadi.

Asarni Abdulla Avloniyning o'zi 1916-yili sahnalashtiradi va Davronbek rolini Nizomiddin Xo'jayev, Jabborali rolini Mannon Uyg'ur ijro etadi.

Abdulla Avloniyning shakllanish yo'liga kirayotgan yangi o'zbek teatrining aktyorlik va rejissyorlik san'atini boshlab beruvchilardan biri hisoblanadi. "Padarkush" spektakli bilan ochilgan "Turon" teatrining birinchi spektaklida Abdulla Avloniy bosh qahramon Boy rolini ijro etdi.

O'sha zamon matbuotining ta'kidlashi va tadqiqotchilarining tasdiqlashicha, (M.Rahmonov. O'zbek teatri tarixi. XVIII asrdan XX asr avvaligacha. T., 1968) Abdulla Avloniy o'z rolini katta mahorat bilan ijro etgan va shundan e'tiboran boylar va katta yoshdagi xarakterli obrazlarni talqin etishga ixtisoslasha borgan. Masalan, "Turon" teatri amaliy faoliyat boshlagan 1914-yilning dekabr oyida sahna yuzini ko'rgan "To'y" spektaklida Abdulla Avloniy asarning bosh qahramon Olimboy rolini katta muvaffaqiyat bilan talqin etadi. Bu haqda "Sadoyi Turkiston" zavqu shavq va tahsin hissi bilan yozadi: "Abdulla Avloniy Olimboy obrazi qanday bo'lishi lozim bo'lsa, xuddi uni shunday mujassam o'laroq ko'z oldimizga

keltirib qo'yadi. Avloniyning sahna-da ko'rsatgan mahorat va iste'dodiga tashakkur qilmasdan o'tmoqni vijdon qabul etmaydi" (1915, yanvar, 54-son).

Abdulla Avloniyning 1915-yilda yozilgan "Pinak" bir pardali komediyasida giyohvandlik va qimorbozlikni Turkistonda mavjud illat sifatida fosh etar ekan, u jaholat, bekorchilik, ota-onalar mas'uliyatsizligining oqibati ekanini ta'kidlaydi, o'qish, o'qitish, bilimga intilish g'oyalari ilgari suradi.

1910-1916-yillar orasida bir nechta sahna asarlarini o'zbekchaga o'girdi va o'zi ularni sahnalashtirdi. Avloniyning dramatik asarlari Toshkentda, Farg'ona, Andijon, Qo'qon, Xo'jand kabi shaharlarda qo'yilgan. Ularda XX asrning 20-yillari boshlaridagi xalq hayoti keng ko'lamda tasvirlangan.

"Ikki sevgi" asarida Turkiyada yuz bergan "Yosh turklar" inqilobi ifoda etilgan bo'lsa, "Biz va Siz" pyesasida XX asr boshlaridagi Turkistonning bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan eskilik va yangilik borasidagi kurashi aniq taqdirar mi-



solida yoritildi, "Portugaliya inqilobi" da esa monarxiyaga qarshi kurash bayrog'i ostida kechgan 1910-yilgi Portugaliya inqilobi qalamga olindi.

"Biz va Siz" asarida eski turmushdan qutilish yo'lida ko'rilgan choralariga ochiq va keskin kurash yo'li bilan aniqlik kiritmoqchi bo'ladi. "Biz" – bu Turkistonda milliy uyg'onish davrida vujudga kelgan ko'zi ochiq, dunyoga yangi nazar bilan qaraydigan avlod. "Siz" – inson erki, orzu-istaklarini o'z domiga tortib, eski turmush girdobiga g'arq bo'lgan kishilar. Muallif mana shu ikki dunyo, ikki qutb kishilarini bir oila o'rtasiga jamlab, ota-ona va farzandlarning dunyoqarashi, intilishlari orqali keng yoritadi.

Oktabr to'ntarishidan keyin xalqqa va'da qilingan erkinlikning berilmaganligi rus sovet tuzumining siyosati riyokor, soxta siyosat ekanligi shoir, dramaturg ijodida tushkunlikning paydo bo'lishiga olib keldi. Keyingi yillarda u maktablarda adabiyot o'qituvchisi, O'rta Osiyo davlat universitetida til va adabiyot kafedrasini mudiri, professori bo'lib faoliyat yuritdi.

Abdulla Avloniy o'sha davrda o'z atrofiga ajoyib hamkorlarni jamlay oldi. Mannon Uyg'ur uning truppasida tarbiya

topdi. Truppa doimiy ravishda Hamza, Ozarbayjon dramaturglari Uzayr Hojibekov, Sidqiy Ruhullo bilan hamkorlikda faoliyat yuritdi.

Truppa Hamzaning "Zaharli hayot", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" kabi o'zbek dramaturgiyasining eng nodir namunalari hamda ozarbayjon dramaturglarining "Badbaxt kelin", "Xo'r-xo'r", "Jaholat", "Man o'lmi-sham", "Layli va Majnun", "Asli va karam" asarlarini o'zbekchaga o'girib, o'zi sahnalashtiradi hamda "Layli va Majnun" da Mallu, "Baxtsiz kuyov" da Fayziboy, "To'y" da Aliboy, "Padarkush" da Boy rollarini ijro etgan.

"Turon" teatri repertuarini milliy, qardosh va dunyo dramaturgiyasi asosiga qo'yishning bosh tashabbuskorlaridan biri ham Abdulla Avloniydir. "Qotili karima", "Uy tarbiyasining bir shakli", "Xiyonatkor oilasi", "O'liklar" singari pyesalarni tarjima qiladi va teatrdan sahnalashtirilishiga bosh-qosh bo'ladi.

Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" darsligi (1913) da tarbiya va

axloq masalalari birinchi marotaba XX asrning talab va ehtiyojlari nuqtai nazaridan tahlil qilingani va ayniqsa "Har bir millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmaslik millatning ruhini yo'qotmakdur" degan hikmati bugun ham o'z qimmatini yo'qotgan emas, balki dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Abdulla Avloniy ijodini o'rganmasdan, XX asr 20-yillarigacha bo'lgan davrga to'g'ri baho berish qiyin.

Yuqorida qayd etilgan dalil va mulohazalar Abdulla Avloniyning yangi o'zbek teatrini yaratuvchilaridan biri – tashkilotchi, dramaturg, aktyor, rejissyor, xalqimizning har qancha ardoq va minnatdorchiligiga loyiq ma'rifatparvar ijodkordir, deb xulosa qilishimizga imkon beradi.

Muxtasar qilib aytganda, Abdulla Avloniyning o'zbek teatrini asoschilaridan biri sifatidagi faoliyati juda boy va qadriligi bilan ahamiyatli.

Faxriddin ABDUVOHIDOV,
"San'atshunoslik va
madaniyatshunoslik"
kafedrasini mudiri

MILLIY MADANIYAT VA MILLATLARARO MUNOSABATLAR

XXI asrda insoniyat to'qnash kelayotgan aksariyat muammolar va to'siqlar eng avvalo, madaniyatga borib taqalmoqda. Shuning uchun ham BMT XXI asrni gumanitar asr, ya'ni ijtimoiy hayotni insoniylashtirish, madaniyatlashtirish davri deb e'lon qilgan edi. Demak, inson hayoti, uning madaniyati bilan bog'liq muammolarni hal qilmasdan turib taraqqiyotni ta'minlash qiyin. Hozirgi kunda ko'pgina millatlarning o'z davlatini mustahkamlash va milliy madaniyatini rivojlantirishga harakat qilayotgani kuzatilyapti. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qator ishlar amalga oshirilib, jahon ahamiyatiga molik qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinmoqda.

Jumladan, 2018-yilning 28-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarori qabul qilingan edi. Mazkur Konsepsi-

yada milliy madaniyatni yanada rivojlantirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning uzviy va ajralmas qismi bo'lishi bilan bir qatorda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 130 dan ortiq millat va elatlarning teng bag'rikenglik ruhida yashayotganligi va yangilanayotgan O'zbekistonning taraqqiyotiga muhim hissa qo'shayotganligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi yaratilib, unda ham mamlakatimizda milliy madaniyat va millatlararo munosabatlarga katta e'tibor berildi. Ushbu hujjatda belgilanganidek, mamlakatimizda xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko'tarish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, barcha sohalarini modernizatsiyalash, qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda milliy madaniyatimizni rivojlant-

irish asosida O'zbekistonning yangi qiyofasi yaratilmoqda. Bu natijalar xalqaro hamkorlikda yaqqol namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi bir qator ixtisoslashgan nufuzli xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnika va madaniy tashkilotlar – Jahon iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropada tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi, Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Bojxona hamkorligi Kengashi, BMTning ta'lim, fan va madaniyat bo'yicha Qo'mitasi (YUNESKO) va boshqa tashkilotlarning faol a'zosi. Bulardan shuni anglashimiz mumkinki, mamlakatimiz jahon jamiyati bilan mustahkam hamkorlik aloqalarini o'rnatgan holda faoliyat olib boradi va qo'shni mamlakatlar bilan ko'plab sohalarda kelishuvlarga erishiladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov ta'kidlaganidek: "Biz Markaziy Osiyoni barqaror rivojlangan, farovon va hamkorlik mintaqasi sifatida ko'rishni istaymiz".

Bugungi kunda millat shakllanishi bilan uni asrash zaruriyati ham yuzaga kelmoqda. Chunki kuchlilarning kuchsizlarga nisbatan tahdidi doim mavjud bo'lib, bunday holat millatlar shakllanishi, rivojlanishi, takomillashuvi jarayoniga ta'sir qiladi. Aynan, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar tom ma'noda millatni asraydi. Eng ahamiyatli jihati shuki, millatni va uning umuminsoniy qadriyat sifatidagi maqomini asrash orqali insoniyatning o'zini ham asrash mumkin. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bu borada ya'ni millatlararo munosabatlar masalasida jahon xalqlarining bu sohadagi erishgan eng ilg'or tajribalarini o'rganib amaliyotga joriy qilish lozim.

Kamoliddin UMAROV,
"Madaniyatshunoslik"
mutaxassisligi
1-bosqich magistranti

Халқ учун нондан сўнг энг муҳими мактабдир.

Ж.Дантон

Хар қандай таълим ва тарбияда энг асосий нарса муаллим, унинг тафаккур дунёсидир.

А.Дистервег

Ўқитувчи энг масъул вазифани адо этади, у инсонни шакллантиради.

Ўз шогирдларида меҳнатдан завқланиш хислатларини уйғота билган муаллим шарафларга лойиқдир.

Э.Хаббард

Саховатнинг энг буюк жасурликлари ватанга муҳаббат туфайли юзага келган.

Ж.Ж. Руссо

Олиймақом ватанпарварлик ватан фаровонлиги йўлида бениҳоя жонбокликдир.

Н.Г. Чернишевский

Ватанпарвар – ватанга хизмат қилаётган кишидир, ватан эса бу авваломбор халқдир.

Н.Г. Чернишевский

Ким ўз юртини севмаса у ҳеч нима-ни сева олмайди.

Ж.Байрон

Яхши кишилар юксак ахлоқий етуклик ва юксак обрў билан ажралиб турдилар.

Ф.М.Достоевский

Миллатнинг муҳим бойлиги – халқнинг маънавий қиёфасидир.

Ж.Милль

Фақат одамлар орасидагина киши ўз-ўзини англашга қодир.

И.Гёте

Кимнинг қалби ҳамма учун тепаётган бўлса, у одам чинакам буюқдир.

Р.Роллан

Ёшлик буюк афсунгар.

А.С.Пушкин

ҲАЁТ – БУ БЕҒЎХТОВ КАМОЛОТДИР

Агар дўстинг билан тенг кўрсанг баҳам Шодлик тенг кўпаюр, тенг бўлинар ғам.

Э.Воҳидов

Курашсиз шон-шавкат ҳам хазон бўлади.

Сенека

Ҳамиша ўзимизни ёшимизга муносиб тарзда тутайлик.

Гораций

Ёшариш ёшга нисбатан номунофиқ турмуш тарзига кечикиб қадам босишдир.

Теофраст

Истак фикрнинг отаси.

В.Шекспир

Камчиликларимизни билиб олсак, энди улар бизга зарар келтиролмайди.

Г.Лихтенберг

Баъзан сукут ҳам қаттиқ танқид ўрнига ўтади.

Ч.Бакстон

Яхши яшамок учун яхши ишламок зарур, шу заминда дадил турмок учун кўп билмоклик даркор.

М.Горький

Олов пайтинг, чакмок дамларинг Ёдингда тут, унутма зинҳор...

И.Аксаков

Ёшлик ҳаммиша фидойилиқдир.

А.И.Герцен

Энг тўғриси, кексалиқнинг ҳаётгий тажрибасини ёшлиқнинг куч ғайрати билан омукта қилишдир.

Б.Шоу

Олға, бир зум ҳам тиним билмайдиган ҳаёт билан бирга фақат олға қараб юриш керак.

Э.Золя

Никоҳ кишилиқ жамиятининг биринчи поғонасидир.

Цицерон

Тутун алангадан ипайдо бўлганидек, никоҳ ҳам муҳаббатга уйғунлашиб кетади.

Н.Шамфор

Оилавий тарбия ота-оналар учун аввало ўз-ўзини тарбиялаш демақдир.

Н.К.Крупская

Номус эр-хотин тотувлигининг кони ва жонидир.

Д.И.Фонвизин

Дунёда гўдақнинг тилидан кўра тантаналироқ гимн йўқ.

В.Гюго

Болалаларни ўстириш ва тарбиялаш улкан, жиддий ва ҳаддан ташқари масъулиятли ишдир.

А.С.Макаренко

Отанинг қаттиққўллиги – ажойиб дори: аччиғидан кўра ширини кўп.

Эпиктет

Намуна кўрсатган ҳолдагина инсон энг юксак натижага эришади.

С.Цвейг

Она қалби битмас-туганмас мўъжизалар манбаидир.

Беранже

Истеъдод сукунат қўйнида етилади, характер ҳаёт бўронларида тобланади.

И.Гёте

Ўз кучингни ҳис этишинг кучингга куч қўшади.

Л.Вовенарг

Ақлли кишининг ишораси ҳам кифоя.

Теренций

Яхши маслаҳат кимдан чикқанлигининг аҳамияти йўқ.

Т.Фуллер

Ватанга муҳаббат мавҳум тушунча бўлмай, ташкилотчиликни, тараққиёт ва маданиятни талаб қиладиган реал рухий қудратдир.

А.Н.Толстой

Ватан учун чала иш қилиш, унинг учун ҳеч нарса қилмасликдир.

М.Робеспьер

Кишини табиат яратади, лекин уни жамият камол топтиради ва шакллантиради.

В.Г.Белинский

Табиат эҳсонига қараганда кишилар кўпроқ машқ туфайли фозил одамларга айланадилар.

Демокрит

Ҳаёт – бу беғўхтов камолотдир. Камолотга етдим, дейиш – ўз-ўзини махв этмокликдир.

Ф.Гегбель

Ўз йўлини топиш, ўз ўрнини билиш – инсон учун энг муҳими шу, бу инсоннинг ўзлигини таниши демақдир.

В.Г.Белинский

Хар бир киши – бутун бир китобдир, ҳамма гап уни ўқий олишда.

У.Ченнинг

Буюк қалбларнинг истеъдоди бошқа одамлардаги улуғликни билишдир.

И.М.Карамзин

Одамлар, инсонпарвар бўлинг! Бу сизнинг биринчи бурчингиз.

Ж.Ж.Руссо

Эртага нима иш қилиши кераклигини билмайдиган одам бахтсиздир.

М.Горький

Инсон умр бўйи бирон бир иш қилиши керак - умр бўйи!

М.Горький

Ustozim, 70 yoshingiz muborak bo'lsin!

Joriy yilning 1-fevral kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti O'quv teatri binosida mohir dirijor, bastakor va mehribon ustoz Hikmat Rajabovning ijodiy kechasi bo'lib o'tdi. Kechani ochib berish uchun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev ochib Hikmat Rajabovni qutlug' 70 yosh bilan muborakbod etdilar. San'at va ijodni o'z umrining mazmun-mohiyati deb bilgan zahmatkash olim, bastakor, mohir dirijor va mehribon ustoz Hikmat Rajabov 1950-yil 1-fevralida Buxoro viloyatining Shiribadan qishlog'ida tavallud topdi.

1973–1978-yillarda Muxtor Ashrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasining xalq cholg'ulari fakul'tetida qashqar rubobi bo'yicha professor F.Vasilev guruhida tahsil oldi. Hikmat Rajabov konservatoriyada o'qish bilan birga Toshkent shahridagi bolalar musiqa maktabida va Guliston davlat bilim yurtida talabalarga musiqadan saboq berdi.

1978–1984 yillarda Buxoro davlat musiqa bilim yurti o'qituvchisi, 1984–1986-yillarda Buxoro davlat filarmoniyasi direktori, 1986–1997-yillarda

Buxoro davlat musiqa bilim yurti direktori, 1997–2001-yillarda viloyat hokimligi madaniyat ishlari bo'yicha boshqarma boshlig'i, 2002–2014-yillarda



Doni Zokirov nomidagi xalq cholg'ulari orkestri badiiy rahbari va bosh dirijori, 2015–2016-yillarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti cholg'u ijrochiligi kafedrasida katta o'qituvchisi, 2016–2017-yillarda Buxoro viloyat musiqali drama teatri bosh dirijori lavozimida

larida faoliyat yuritgan. 2017-yildan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasida katta o'qituvchi, dotsent sifatida faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Ustoz Hikmat Rajabovning bugungi kungacha yozgan asarlaridan "Guli bodom", "Buxorom bor", "Onajonim, qaydasiz?", "Ko'zlarim", "Toshkentim", "Buxoroda-buxoroda", "Dil", "Shonli kelajak avlod", "Vatan", "O'zbekiston o'zimmiki" kabi 30 ga yaqin qo'shiqlari O'zbekiston radiosining "Oltin fond"iga yozib olingan bo'lib, radio va televideniya orqali muntazam yangrab kelmoqda. Ularda ona Vatan madhi, yurt tinchligi va farovonligi, insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati kuylanadi.

Hikmat Rajabovning shogirdlari orasida xalqaro tanlovlar sovrindorlari Tolibjon Ikromov, Bobomurod Xudoyqulov, O'lmas Olloberganov, Matluba Yoqubova, Aysha Berdiyeva kabi mahoratli san'atkorlar bugungi kunda musiqa san'atini rivojlantirishga o'z hissarini qo'shib kelmoqdalar.

Ustozning ijodiy kechasida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi talabalari kamer orkestri ijro etdi. Dastur davomida "Buxorom bor", "Toshkentim",

"Onajonim, qaydasiz?", "Chorlov", "Buxoroda-buxoroda", "Guli bodom", "Havzi kavsar qoshimda", "Oh, oppoq kapalak", "O'zbekiston o'zimmiki" kabi asarlar mahorat bilan ijro etildi. Ustozni tabriklash uchun O'zbekiston davlat Konservatoriyasi rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi Avaz Mansurov, "Sug'diyona" kamer orkestrining badiiy rahbari va bosh dirijori Feruza Abdurahimova, O'zbekiston davlat Konservatoriyasi "Cholg'u ijrochiligi" o'qituvchilari Bahodir Mirfayozov, O'zbekiston davlat filarmoniyasi huzuridagi akademik xalq cholg'ulari orkestri badiiy rahbari Dilshod Mutalovlar tashrif buyurdilar. Konsert dasturi juda ham ko'tarinki kayfiyatda o'tdi, mehmonlar va tomoshabinlarda juda yaxshi taassurot qoldirdi. Biz yoshlar, ustozimizga mustahkam sog'lik, yangi ijodiy g'oyalarni amalga oshirishda hormay-tolmay xizmat qilish saodatini va mehnatlarining huzurini uzoq yillar ko'rib yurishlarini tilaymiz.

Sherali AZIZOV,

"Kino, televideniye va radio"
fakulteti

Kasbiy talim cholg'u ijrochiligi
2-bosqich talabasi

BOBURMIRZO ORZUSI

Jangu jadallarda ulg'aygan o'g'lon,
Jang-u jadallardan oshdi ko'p dovon.
Makon bo'lmish unga ko'hna Hindiston,
Armoni yo'qmidi Bobur mirzoning,
Orzusi ko'p edi Bobur mirzoning.

O'zga makon aslo Vatan bo'lolmas,
Shoh bo'lsa-da, yurtdan ko'ngil uzolmas.
Hatto yiroqlardan nazar sololmas,
Armoni yo'qmidi Bobur mirzoning,
Orzusi ko'p edi Bobur mirzoning.

Yov ilkida qolmish Xonzodabegim,
Taqdir zarbasiga bardosh berib jim.
Mirzo Boburga madadkor bo'la olur kim,
Armoni yo'qmidi Bobur mirzoning,
Orzusi ko'p edi Bobur mirzoning.

Musofir yurtlarda chekib ko'p alam,
Yurt madhida ado bo'ldi ming qalam.
"Jonim sadqa senga Humoyun bolam,"
Armoni yo'qmidi Bobur mirzoning,
Orzusi ko'p edi Bobur mirzoning.

Qayda bor azizlar armonsiz dunyo,
Orzular beshikast bo'lguvchi ro'yo.
Armonli yurakka yozilgay ziyo,
Armoni yo'qmidi Bobur mirzoning,
Orzusi ko'p edi Bobur mirzoning.

Jannatmakon bo'lmish bugun Andijon,
Jahonda sarbaland hur O'zbekiston.
Qay tomon yo'l olsak, yo'limiz ravon,
Ushalmish orzusi Bobur mirzoning,
Ruhlari shod bugun Bobur mirzoning.

Sadoqat ERMATOVA,
"Devonxona" bo'limi mudiri

Ilm-ma'rifat yoshlar nigohida

Biz doimo bilim zarur ekanligini anglaymiz, tushunamiz, ta'kidlaymiz. Insonlarga bilim bo'lish zarurligini uqtiramiz. Xo'sh, bilim o'zi nima degani?

Bilim olamning tafakkurimizda aks etishidir. Bilim keng ma'noda tasavvur, tushuncha, nazariyalarning yig'indisidan iborat. Tor ma'noda esa bilim biror narsa, voqea, hodisa, olam, tabiatni, insonni tushunish va biror ishni amalga oshirish imkonini beruvchi axborotdan iborat. Oddiygina qilib aytganda, bilim bu dunyoni anglashga, tushunishga, so'ngra esa to'g'ri faoliyat olib borishga yordam beruvchi dasturli amal, ya'ni oddiy so'z

– Bas! Yetar! Hiqildog'imga keldi!
Yo u ketadi bu uydan, yo men!

Yuqori qavatdagi xonada bo'layotgan baqir-chaqirlarni tokchadagi gultuvaklarga termilganicha eshitib turgan Nabi ota, yuzidan sizib ketayotgan bir tomchi yoshni qaltiroq barmoqlari bilan asta-astalab qo'ydi. Otaning ketishi to'g'risidagi muhokama rosa cho'zildi. Janjal bironingach, ota o'g'lini yoniga chaqirib, qariyalar uyiga tashlab kelishiga bir amallab ko'ndirdi. Bu "xushxabar"dan mamnun bo'lgan kelin, erta tongda xuddi mehmon kuzatayotgandek qaynotasining narsalarini taxt qilib qo'ydi.

O'g'il mashinani o't oldirdi. Nabi ota ketishidan oldin nabiralari bilan uzoq xayrlashdi. Jigargo'shalarini duo qildi. Bu manzarani betoqatlik bilan kuzatib turgan kelin ayni lahzalarda beixtiyor o'z qilmishidan iymandi...

Mashina qishloqdan uzoqlashib borardi. "Tuni bilan uxlay olmadim, bolam, biroz mizg'ib olaman. Manzilga

bilan aytganimizda biz uchun dasturdir.

Insoniyat taraqqiyoti isbotlab turibdiki, bilim doimo insonga rivojlanish imkonini berib kelgan.

Ayniqsa, siz va biz yashayotgan juda ham o'zgaruvchan, murakkab davrda bilim har qachongidan ham zarur resursga aylanib bormoqda! Masalan, har kuni jahonda yangi bir texnologik o'zgarish va haqida eshitamiz, ko'ramiz. Kerak bo'lsa, tobora murakkab texnologiyalardan foydalanamiz. Davrimizning o'zgaruvchanligining asosida ham aslida bilimlar yotibdi. Biz shu takomillashgan zamonaviy zamonda o'z o'rnimizni

topishimiz, vatanimiz bayrog'ini tobora yuqoriga ko'tarishimiz uchun, albatta, kitobga mehr qo'yishimiz va ilm-ma'rifatli bo'lishimiz lozim. Birgina institutimiz miqyosida yangicha tashabbus bilan, tashkil etilayotgan "Kitobxon" ko'rik tanlovi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Bejizga 2020-yil yurtboshimiz tomonidan "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish" yili etib e'lon qilingan.

Bunyodjon SHUKUROV,

"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish"
yo'nalishi 1-kurs talabasi.

NABI OTANING UYI

yetgach uyg'otarsan" deya, ota o'rindiq suyanchig'iga bosh qo'yib ko'zlarini asta yumdi.

Kelin esa hayhotday hovlida "Endi erkin qushman!" deya huzurlanib yurardi. Lekin, bu tongda nimadir boshqacha edi. Ko'ngilga botadigan darajada boshqacha... Ayvonning shiftiga qator ilingan to'rqovoqlardagi bedanalarning tinmay sayrash-yu, devor burchagida zanjirlangan Olaparning darvoza tarafga qarab akillashi, farzandlarining "bobom"lab hiqillashlari... Bu tovushlarning hammasi birlashib (go'yo kelishib olgandek) hovlida g'alati shovqin paydo qilar, ayolning ich-ichida allaqanday besaranjomlik uyg'otar edi. Bir nimani yo'qotgandek u yoqdan bu yoqqa yurar, ishi unmas, har zamon ko'chaga chiqib erinib yo'liga ko'z tikardi...

Bu yoqda esa o'g'il mashinani juda sekin haydab, goh oynadan otasining nuroniy chehrasiga, goh o'zining ko'zgudagi aksiga qarab, o'zi bilan o'zi olishib borardi. Ota beozorgina uxlardi. O'z uyiga sig'magan, o'z uyidan haydalgan ota... Uning otasi!

O'g'il daf'atan rulni ortga burdi. Mashina yengil siltanib yo'lda davom etdi. Oynadan qarab otasining hamon bir tekis uxlayotganini ko'rdi va "Uyga borganda uyg'otaman, shunda birdan suyunib ketadi", deb o'yladi.

Ulov yeldek uchib borardi.

Ularning birga qaytayotganini ko'rgan kelinning yelkasidan tog' ag'darilgandek bo'ldi. Erini ko'zlarini namlanib qarshi oldi. O'g'il mashinani to'xtatgan zahoti otasini uyg'ota boshladi. Ko'p urindi. Biroq... Nabi ota allaqachon o'z uyiga yetib borgan edi.

Muhammad SIDDIQ,

"Sahna va ekran dramaturgiyasi"
yo'nalishi talabasi

Muassis:
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir:
Muhayyo QOSIMOVA

Tahrir hay'ati:
Go'zal XOLIQULOVA
Ma'rufjon YULDASHEV
O'tkur ISLAMOV
Antonino KOSHELEVA
Rashid USNATOV
Dostonbek RAHMATULLAYEV
Jumagul NISHONOVA
Mas'ul kotib:
Alimurod TOJIYEV
Nafisa RAIMQULOVA

Tahririyat manzili: 100025 Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (0-371) 230-28-13.
www.dsmi.uz; nashriyot@dsmi.uz

Gazeta har o'ying oxirgi haftasida «NISO POLIGRAF» MCHJ bosmaxonasida chop etiladi.
Manzil: O'rta Chirchiq tumani, Oq ota QFY, Mash'al mahallasi, Markaz-1.

Sahifalovchi:
Shahriyor IBRAGIMOV

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta institutning tahririyat va nashriyot bo'limida tayyorlandi.
O'lchami – A3, hajmi 2 bosma taboq.
Nusxasi – 500 dona. Narxi kelishilgan narxda.
Chop etishga .23.03. 2020-yilda topshirildi.